



1991-yildan
chiqa boshlagan

2024-yil. 2-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

ALISHER NAVOIY HAMDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
XALQIMIZNING IKKI ULUG' DAHOSI



Ushbu sonda



DARS – MUQADDAS

Mumtoz so'z badiiyati

8
bet



METODIK TAVSIYA

Til o'rganish jarayonida
psixologik moyillik

23
bet



TADQIQOT

Simvol va metafora
hodisalarining lingvistik
tadqiqi

41
bet



ИЗУЧАЕМ ЛИТЕРАТУРНЫЕ ПАМЯТНИКИ

«Памятник» А.С.Пушкина:
традиция и новаторство

63
bet

NAVOIY G'AZALIGA MUXAMMAS

*Ishq-u oshiqlik yo'linda iqtido bo'ldum sanga,
Kipruking lashkarlari-chun Karbalo bo'ldum sanga,
Noz-firoqing zahmatidin bedavo bo'ldum sanga,
Ko'rgali husnuningni zor-u muftalo bo'ldum sanga,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.*

*Farq etolmam otashi ishq birla gulxandin ko'ngul,
Hajr o'ti bois qarodur chu zaminkandin ko'ngul,
Vasling istab har nafas qushdek uchar tandin ko'ngul,
Har necha dedimki kun-kundin uzay sandin ko'ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo'ldum sanga.*

*Gulxani ishq birla bag'rim kuydirish jazm aylading,
Shum raqiblar ahlig'akim har qachon hilm aylading,
Tiyg'i paykoning ko'ngulg'a sanchimoq ilm aylading,
Men qachon dedim, vafo qilg'il manga, zulm aylading,
Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga, bo'ldum sanga.*

*Ko'zlarim tushgach ko'zungga, tanni tark etdi sihat,
Jonsiton nigohlaring man bandani aylar surat,
Chun yuzungni ol qilibdurkim bu holimdin uyat,
Qay pari paykarg'a dersen, telba bo'ldung bu sifat,
Ey pari paykar, ne qilsang qil manga, bo'ldum sanga.*

*Dil, chin oshiqlik mayidin sipqarib xummora bo'l,
Mehri olam tegrasinda aylanib sayyora bo'l,
Qil muruvvat ham futuvvat otig'a savvora bo'l,
Ey ko'ngil, tarki nasihat ayladim, avvora bo'l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.*

*Chun vatandin ayru tushgan jon g'aribimdur mudom,
Mehri ishqing jonfizolig'kim tabibimdur mudom,
Fikr-u yoding uyqusiz tunlar habibimdur mudom,
Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.*

*Qutbi oshiqliqg'a yetmas hech birikim joh aro,
Kim muhabbat shevasi teng ham g'aniy-qashshoq aro,
Shodiyor, sozing chalolmas hech kimi mashshoq aro,
G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.*

IBRAT SOHIBI

Butun umrini ma'rifat ulashishga bag'ishlagan insonlar qorong'u kechani munavvar qilgan yulduzga o'xshaydi. Olimlik martabasi, ustozlik maqomi, shogirdlik burchi oldida sodiq qolish, ibrat namunasiga aylanish har kimga ham nasib etmaydi.

1935-yil 4-oktabrda Namangan viloyati, Kosonsoy shahrida etikdo'z oilasida tug'ilgan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori Hamidjon Homidiy chin ma'noda kelajak avlod, shogirdlar uchun ibrat maktabini yaratib ketdi. 1956–1961-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida tahsil olgan Hamidjon Homidiy 2016-yilgacha o'zi o'qigan shu dargohda faoliyat ko'rsatdi. Dastlab, "O'zbek tili" kafedrasida o'qituvchi, 1963–1967-yillarda institutning aspirantura talabasi bo'lgan. 1982–2010-yillarda universitetning "Hozirgi o'zbek adabiyoti" hamda "O'zbek klassik adabiyoti" kafedralarini boshqardi. Qamrovli olim va fidoyi ustoz sifatida o'zi o'qigan dargohning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biriga aylanishiga hissa qo'shdi. Hatto, nofilologik yo'nalish talabalari ham o'zbek mumtoz adabiyoti durdonalaridan bahra topishi, so'z mulkining sultoni, o'zbek tili va adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy ijodini o'qib o'rganishi uchun maxsus "Navoiyshunoslik" kursini tashkil etdi.

Ustoz Hamidjon Homidiyning "Do'stlik" ordeni, "Mustaqillikning 15 yilligi", "Xalq maorifi a'lochisi" nishonlari bilan taqdirlanishi umr bo'yi darslik va qo'llanma, kitob va risola, ilmiy maqolalar yozgani, Sharq adabiyotining nodir namunalarini tarjima qilgani, ta'lim dargohlariga munosib shogirdlar yetishtirgani, tinim bilmay ustozlik qilgani samarisidir.

Ustoz Hamidjon Homidiy yurtimizdagi qo'lyozma fondlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyidagi qo'lyozma manbalarni o'qish, ko'chirish, ilm ahliga yetkazish yo'lida kamarbasta bo'ldi.

Hamidjon Homidiy domlaga xos fazilatlardan

biri u ilmiy-ijodiy izlanishlar jarayonida qo'lga kiritgan yangi dalillarni keng jamoatchilik e'tiboriga havola etishga oshiqardi. Ustoz firdavsiyshunos sifatida o'lmas "Shohnoma"ning qo'lyozma, toshbosma va nashriy nusxalarini qiyosiy-tipologik jihatdan tekshirib chiqdi.

Qo'lyozma manbalardagi farq va tafovutlar, chalkashlik va kamchiliklarni bartaraf etdi. "Shohnoma"dagi xalq qahramonligi, vatanparvarlik, adolat va ma'rifat g'oyalarining badiiy talqiniga bag'ishlangan risola va kitoblar chop ettirdi. "Shohnoma"ning bir o'zbekcha tarjimasi" mavzusida nomzodlik (1967), "Firdavsiy va o'zbek adabiyoti" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Zabardast olim Hamidjon Homidiy Sharqdan yetishib chiqqan tasavvuf allomalari, avliyolari hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumot beruvchi "Tasavvuf: Qaraniydan Rushdiygacha" kitobining muallifidir. Kitobda tasavvufning turli yo'nalishiga mansub shayx va oriflar hayoti, zikri mavjud. Risolada Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Abdulhasan Harraqoniy, Abu Said Abulxayr kabi jununtabiat, iloh ishqining sarhushlari, Junayd Bog'dodiy, Zunnun Misriy, Abdulloh Ansoriy, Abu Homid G'azzoliy, Najmiddin Kubro kabi valiyalar, o'zbek kitobxoniga unchalik tanish bo'lmagan Abulqosim Kushtigiriy, Abul Abbos Qassob, Muhammad Hafif kabi tasavvuf shayxlariga o'rin berilgan. Hamidjon Homidiyning tasavvuf ilmiga oid kitob, risolalari olimning Islom tarixi, Movarounnahr tasavvufini chuqur bilishidan darak beradi.

Ustoz Hamidjon Homidiy "Mashriqzamin – hikmat bo'stoni" kitobida "O'z qiyofasiga ega bo'lmagan kishi shaxs emas", deb yozgan edi. E'tibor qaratilsa, Hamidjon Homidiy domla o'zi yozgan, manbalardan o'qib o'rgangan ezgu amallarga doimiy rioya qilgan, ham olim, ham inson sifatida fikr-amal mushtarakligiga erisha olgan.

2024-yil 11-yanvarda ustoz Hamidjon Homidiy vafot etdi. Bugun yurtimizning turli oliy dargohlarida Hamidjon Homidiy domlani shogirdlari faoliyat yuritmoqda. Ustoz qoldirgan ma'naviy meros, o'git-nasihatlar shogirdlar uchun dasturlamal vazifasini o'taydi.



«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»



Поиск по сайту

**2024-YIL UCHUN OBUNA BOSHLANDI!
ОБЪЯВЛЯЕМ О НАЧАЛЕ ПОДПИСКИ НА 2024 ГОД!**

*Imtiyozli narxda obuna bo'lishga shoshiling**
*Спешите подписаться на журнал по льготной цене**

Imtiyozsiz / без льготы – 580 000 so'm/сум
Imtiyozli / льготная – 500 000 so'm/сум

Tahririyat orqali to'g'ridan-to'g'ri obuna bo'lsangiz, jurnalning o'z manzilingizga yetib borishi kafolatlanadi.



Click tizimi orqali jurnalga yillik obuna bo'lib, 12 ta sonini o'qishga muvassar bo'ling
Подпишитесь через Click и получите доступ к чтению 12 номеров журнала

***Imtiyozli narx 2023-yil 31-dekabr gacha amal qiladi.**
***Льготная цена действительна до 31 декабря 2023 года.**

Tahririyat manzili: Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz
Telefon raqamlarimiz:
Bosh muharrir o'rinbosari: (71) 233-03-62
Mas'ul kotib: (71) 233-03-10
Adabiyot o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-45
Til o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-67

Chet til o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-67
Преподавание языка и литературы:
(71) 233-03-67
Hisobxona: (71) 233-03-68



@TAT_JURNAL



ИНДЕКС 872